

## YASHIL IQTISODIYOT VA UNING KELAJAKDAGI ISTIQBOLLARI

Buxoro davlat universiteti  
Iqtisodiyot kafedrasи  
katta o'qituvchisi Phd, **Giyazova N.B.**  
"Iqtisodiyot va Turizm"  
fakulteti 4-bosqich talabasi  
**Ibodullayeva Dildora**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada yashil iqtisodiyotga o'tishning strategik mexanizmi global va milliy miqyosda barqaror rivojlanishga o'tishning samarali yo'llari, tamoyillari haqida nazariy ma'lumotlar amaliy jihatlar yoritilgan.

**Kalit sozlar:** yashil iqtisodiyot, hayot sifati, aholi, mamlakatlar, resurslar, iqtisodiy o'sish, barqaror rivojlanish, yashil rivojlanish.

Mamlakatimizning yangi rivojlanish bosqichida barcha sohalar kabi atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik muammolarning inson salomatligiga salbiy ta'sirining oldini olish borasida amalga oshirilayotgan ulkan ishlar barqaror rivojlanish kafolati bo'lmoqda. "Yashil" iqtisodiyotga o'tishning dolzarb ekaniso'nggi yillarda mavjud iqtisodiy tizimlarda ko'plab inqirozlar ro'y bergani bilan izohlanadi. O'zbekistonda 2019–2030-yillarda "Yashil" iqtisodiyotga o'tish kontsepsiysi qator vazifalarni o'z ichiga oladi. Jumladan, energiya samaradorligiko'rsatkichini ikki karra oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini yanada rivojlantirish, ularning ulushini elektrenergiyasini ishlab chiqarish umumiylaj hajmining yigirma besh foizidan ko'prog'iga yetkazish, aholi va iqtisodiyot tarmoqlarini zamонави, arzon va ishonchli energiya bilan ta'minlash ko'zda tutilgan.

Yashil iqtisodiyot har qanday davlatning barqaror rivojlanishini ta'minlashning muhim vositalaridan biridir. Yashil iqtisodiyot deganda aholining turmush darajasi yuqori bo'lgan, tabiiy resurslardan hozirgi va kelajak avlodlar manfaati yo'lida hamda mamlakatning xalqaro ekologik majburiyatlariga muvofiq ravishda ehtiyyotkor va oqilona foydalanish nazarda utilgan iqtisodiyot tushuniladi. Maqolada O'zbekiston misolida ko'rib chiqiladi. Yangi yashil iqtisodiyot siyosati, ta'kidlanganidek, O'zbekiston aholisi farovonligini oshirish, turmush sifatini yaxshilash va mamlakatimizni dunyoning eng rivojlangan 50 ta davlati qatoriga kiritish bo'yicha chuqur tizimli islohotlarga asos bo'ladi. Jahon hamjamiyatining eng





dolzarb muammolaridan biri bu rivojlanayotgan bozorlar iqtisodiy o'sishining ishonchli harakatlantiruvchi kuchi bo'lgan va iqtisodiy inqirozdan chiqish uchun yangi imkoniyatlar yaratuvchi "yashil" iqtisodiyotni joriy etishdir. Maqolada O'zbekistonning faol iqtisodiy siyosat olib borish orqali iqtisodiyotini "yashil"ga aylantirish borasidagi sa'y-harakatlari tahlil qilingan.

Globallashuv jarayoni sanoati rivojlangan mamlakatlarning texnologik bazasining sifat jihatidan yangilanishini, ishlab chiqarish samaradorligi va raqobatbardoshlik darajasini oshirish bilan birga hayot sifatini va yashash muhitini yaxshilashni ta'minlaydigan yangi texnologik tuzilmaga modernizatsiya qilingan iqtisodiyotga o'tishni talab qilmoqda. Xorijda bu o'tishni amalga oshiruvchi "yashil o'sish" iqtisodiy siyosati Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (OECD) tomonidan barcha a'zolarining uzoq muddatli (2030- yilgacha) rivojlanishi uchun strategik yo'nalish sifatida qabul qilingan. Inqirozga qarshi salohiyat nuqtai nazaridan, eko-innovatsiyalar, yashil investitsiya va, umuman, yashil iqtisodiyot, bandlikni oshirish, ishsizlikni yumshatish, iqtisodiyotning barcha sohalarida faoliyatni rag`batlantirish va retsessiyadan tezroq chiqib ketish imkonini beradi.

BMTning Atrof-muhit bo'yicha dasturiga ko'ra, iqtisodiyotni "yashillashtirish"ga dunyo yalpi ichki mahsulotining 2 foizini investitsiya qilish 2011—2050-yillar davomida hozirgi va kelajakdagi uzoq muddatli o'sish sur'atlarini ta'minlaydi, iqlim o'zgarishi, suv tanqisligi oshishi va ekotizim xizmatlarining yo'qolishi bilan bog'liq jiddiy xavflarning oldini oladi. Iqtisodiyotning hududiy joylashuvi, resurslar cheklanganligi, ayniqsa, suv resurslarini hisobga olgan holda "yashil" relslarga o'tishi O'zbekiston uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Jahon resurslari instituti ma'lumotlariga ko'ra, respublikamiz suv ta'siridan eng ko'p jabrlangan 25mamlakat qatoriga kiradi va suv tanqisligi iqlim o'zgarishi bilan yana-da yomonlashaveradi.

Yashil iqtisodiyot nazariyasining bugungi kunga kelib keng yoyilishining asosiy sababi, bu mavjud ekologik muammolarning global ahamiyat kasb etayotgani hamda yashil iqtisodiyot taklif etayotgan tovar va xizmatlarning aholi ehtiyojlarini qondirish bilan bir qatorda mavjud muammolarni bartaraf etishga qaratilganlidadir. UNEP ning yashil iqtisodiyot togrisidagi maruzasida, jahon YAIM hajmining 2 foizi iqtisodiyotni yashillashtirishga sarflansa, yillarda doimiy iqtisodiy osish kabi uzoq muddatli iqtisodiy osishga erishish mumkin va eng asosiysi, bir vaqtning ozida iqlim sharoiti, suv tanqisligi bilan bogliq muammolarni qisman hal etish hamda ekotizimlar yoq bolib ketishining oldini olish mumkinligi takidlanadi 1992-yil Rio-de- Janeyroda bolib otgan konferensiya yashil iqtisodiyot yonalishining xalqaro hamda milliy





iqtisodiy tizimlar orasida keng yoyilishiga olib keldi. Ushbu konferensiyada kotarilgan bosh mavzu o'sib borayotgan iqtisodiy taraqqiyot sharoitida atrof-muhitga korsatilayotgan zararni minimallashtirish masalasi edi yil aynan ushbu shaharda otkazilgan Biz istagan kelajak shiori ostida navbatdagi konferensiyada milliy iqtisodiy tizimlarni barqaror taraqqiyot asosida modernizatsiya qilish majburiyatini yuklovchi hujjat imzolandi.

Xulosa qilib aytganda, yashil iqtisodiyotgao'tish resurslardan samarali foydalanish, ekologik muvozanatni ta'minlash, yangi ish o'rinalarini yaratish, barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash imkonini beradi. Barqaror rivojlanishni ta'minlashda yashil iqtisodiyotning o'rni ko'plab rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy strategiyalari, dastur va rejalariga kiritilgan.

Yashil iqtisodiyot-bu ekologik xavflarni kamaytirish va tanqislikni kamaytirish, shu orqali odamlar farovonligi va ijtimoiy darajasini yaxshilashga qaratilgan iqtisodiy tizim. Yashil iqtisodiyot-iqtisodiy tizim bo'lib, uning asosiy maqsadi sayyoramiz ekologiyasini saqlash va iqtisodiyotning barchasohalarini rivojlantirish, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiyotni yanada rivojlantirishni amalga oshirishga asoslangan iqtisodiy faoliyatning yangi yo'nalishidir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdulloyev, A. (2023). Methodological foundations for evaluating the efficiency of agrocluster management. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz), 42(42).
2. Abdulloyev, A. (2023). АГРОКЛАСТЕР ФАОЛИЯТИНИ БОШҚАРИШНИНГ "БАЗАВИЙ" МОДЕЛИ ВА УНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz), 42(42).
3. Choriyeva, N. (2022). Priorities in the Development of Agricultural Cooperation in Uzbekistan. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz), 16(16).
4. Choriyeva, N. (2022). РАЗВИТИЕ СПЕЦИАЛИЗИРОВАННЫХ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ КЛАСТЕРОВ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz), 16(16).
5. Dustova, A. (2022). Stimulating The Economic Growth Of Territories Through The Development Of Regional Tourism. Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz), 12(12).



6. Niyozova, I. (2021). The Transition to the Green Economy and the Importance of Strategy. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 8(8).

7. Niyozovna, N. I. (2023). Ways to Increase the Competitiveness of Enterprises through Digital Marketing Strategies. European journal of business startups and open society, 3(12), 154-157.

8. Таирова, М. М., & Гиязова, Н. Б. (2016). Поддержка предпринимательской деятельности в Узбекистане. International scientific review, (2 (12)), 105-107.

9. Qayimova, Z. (2023). Ways to Develop Economic Infrastructure in Uzbekistan. Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz), 27(27).

10. Kadirovna, S. N. (2024). Importance of Foreign Experience for Uzbekistan in the Transition to a Green Economy. EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY, 4(4), 48-51.

11. Giyazova, N. (2023). The share of world countries in the textile industry and the importance of marketing in its development. Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz), 27(27).

12. Anatolyevna, R. I., & Bayazovna, G. N. (2022). The Role of Innovative Marketing in the Development of the Textile Industry. EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY, 2(11), 10-14.

13. Bayazovna, G. N. (2022). Ensuring the Development of Textile Enterprises on the Basis of Competitive Advantage. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN, 3(6), 40-45.

14. Giyazova, N. (2022). РАЗРАБОТКА МЕТОДА ДИАГНОСТИКИ ВЛИЯНИЯ СТРАТЕГИЧЕСКИХ КОНКУРЕНТНЫХ ПРЕИМУЩЕСТВ НА УСТОЙЧИВОЕ РАЗВИТИЕ СОВРЕМЕННЫХ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 20(20).

15. Игамова, Ш. З. (2024). МЕТОДИЧЕСКИЕ РЕКОМЕНДАЦИИ ПО ФОРМИРОВАНИЮ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО МЕХАНИЗМА ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИННОВАЦИОННОГО развития ПРЕДПРИЯТИЙ СТРОИТЕЛЬНЫХ МАТЕРИАЛОВ. Gospodarka i Innowacje., 43, 335-340.

16. Igamova, S. (2023). ЭФФЕКТИВНОСТЬ РАЗВИТИЯ ПРОМЫШЛЕННОСТИ СТРОИТЕЛЬНЫХ МАТЕРИАЛОВ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 27(27).

- 
17. Niyozova, I. (2021). Mechanism of Implementation of Mandatory Health Insurance in Uzbekistan under Conditions of Increasing Integration Processes. Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz), 7(7).
18. Rakhmatullaeva, F. M., & Aminova, N. B. (2022). Methodological Approaches To The Development Of Ecological Tourism Logistics. European Journal Of Innovation In Nonformal Education, 2(1), 207-211.
19. Rakhmatullaeva, F. M., & Nurova, G. N. (2020). The importance of trade policy in the economic development of the country. Economics, 1, 27-28.
20. Muxammedovna, Z. N., & Ravshanovna, R. G. (2023). DIRECTIONS FOR USING DIGITAL MARKETING IN THE FOREIGN ECONOMIC ACTIVITY OF THE ENTERPRISE.
21. Xasanova, S. (2023). Analysis of the Work Carried Out in Uzbekistan and the World to Prevent Tax Violations. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 3(12), 47-50.
22. Хайрова, Д. Р., & Сайфуллаева, М. И. (2021). Тенденции развития цементной индустрии в Узбекистане. Бюллетень науки и практики, 7(6), 358-362.

